
«PREZIDENT ARCHASI» BAYRAM TANTANASI

tumanimizda ko'tarinki ruhda o'tib bolajonlar qalbi quvonchga to'ldi

Yangi yil bayramini barchamiz orziqib kutamiz. Albatta kichkintoy bolajonlar quvonchi, Qorbobo va Qorqizning tashrifi, yangi yil sovg'alari bilan bu bayram o'zgacha qiyofa aks etadi. Mamlakatimizning barcha hududlarida bo'lganidek tumanimiz markazida ham «Prezident archasi» bayram tantanasi bo'lib o'tdi.

Bayram tadbirida tuman hokimligi hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etib umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalaridan kelgan uch yuzga yaqin o'quvchi va tarbiyalanuvchilarni yangi yil bayrami bilan qutladilar. Tadbirda kichkintoylar uchun tuman "Barkamol avlod" bolalar markazining "Yog'du" teatr jamoasi a'zolari tomonidan tayyorlangan "Sehri sarguzasht" nomli sahnaviy ko'rinish namoyish etildi.

Shuningdek bayram tantanasida tuman "Rayxon" ashula va raqs xalq dastasining xushovoz xonandalari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar ham barchaga manzur bo'ldi.

Tadbir so'nggida bolalarga yangi yil sovg'alari topshirildi.

2019-12-28 14:06:27